



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

INGLIZ VA O'ZBEK QISSALARIDA KINOYAVIY-PARODIK USUL TADRIJI

Turumova Nilufar Erkinovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, dotsent

Annotatsiya

Mazkur tadqiqot Jorj Oruell va Luqmon Bo'rixonning adabiy asarlarida kinoyaning qo'llanishini belgilovchi metodologik asoslar hamda talqin mezonlarini har tomonlama tahlil qiladi. Ayniqsa, mualliflarning totalitar diskurs xususiyatiga ega mafkuraviy konstruksiyalarni ochish va tanqid qilish strategiyalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, maqolada aniqlangan muammolarni hal etishga olib boruvchi tahliliy yo'nalishlar yoritilib, matn ichidagi baholash parametrlarining ichki mantiqi, izchilligi va uzviyligi baholanadi.

Kalit so'zlar: kinoya, metamorfoza, modus, stilistika, qiyosiy tahlil, falsafa, etika, mualliflik, ideallik.

ЭВОЛЮЦИОННОЕ ФОРМИРОВАНИЕ ИРОНИЧЕСКО-ПАРОДИЙНОГО МЕТОДА В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОВЕСТЯХ

Турумова Нилуфар Эркиновна

Университет экономики и педагогики, доцент

Аннотация

В данном исследовании представлен комплексный анализ методологических основ и интерпретационных критериев, определяющих использование иронии в произведениях Джорджа Оруэлла и Лукмона Бурихона. Особое внимание уделяется стратегиям авторов по раскрытию и критическому осмыслению идеологических конструкций, характеризующихся тоталитарным дискурсом. В статье также раскрываются аналитические подходы к решению выявленных проблем и оцениваются внутренняя логика, последовательность и целостность используемых в текстах оценочных параметров.

Ключевые слова: ирония, метаморфоза, модус, стилистика, сопоставительный анализ, философия, этика, авторство, идеальность.

THE EVOLUTION OF THE IRONIC-PARODIC METHOD IN ENGLISH AND UZBEK NOVELLAS

Turumova Nilufar Erkinovna

University of Economics and Pedagogy, Associate Professor

Abstract

This study offers a comprehensive examination of the methodological foundations and interpretive criteria that shape the use of irony in the literary works of George Orwell and Luqmon Burikhon. Particular emphasis is placed on the authors' strategies for unveiling and critiquing ideological constructs characterized by totalitarian discourse. The article further elucidates the analytical pathways through which the identified problems are addressed, while

assessing the internal logic, coherence, and continuity of the evaluative parameters employed within the texts.

Keywords: irony, metamorphosis, modus, stylistics, comparison, philosophy, ethics, authorship, ideality.

Ingliz nasri nafaqat, badiiy-tasviriy vositalar o'ziga xosligi, balki ijtimoiy-madaniy, siyosiy jabhalarni yengil kulgi, parodiya bilan ochib berish, obrazli tusda gavdalanirish yo'sinida ham katta izlanishlarni boshidan o'tkazdi. Shunga ko'ra, qissa badiiyatida kinoya haqida so'z borganda, quyidagi jihatlarga diqqat qilish maqsadga muvofiqdir.

Ingliz nasrida yangilangan metamorfoza: tushkunlik, san'atning umuminsiy lashuvi, kodlar, shtrixlar, hayot haqiqatini badiiy kinoya formulasida yuzaga chiqarish har qanday davr manzarasiga real mohiyat bilan qarash orqali odam shaxsiyatini miridan-sirigacha ochib tashlash, "fosh qilish" borasida keng ko'lamli izlanishlar olib borildi. Deylik, zamonaning asl qiyofasi, odamlarning ruhiyati, muammoning chuqur ildiz otganligi, amaldorlarning oddiy xalq oldida hisobdor emasligi, kayfiyat va qarashlar xilma-xilligi borasidagi tafovutlar birgina Yevropada sarguzashtnomalarning ko'payishi, boshqa xalqlarni ham hayotini teran ifodalash borasida ancha sermahsul ijodlar amalga oshirildi.

Adabiyotshunoslik lug'atida keltirilishicha: "Kinoya – mumtoz adabiyotshunoslikda majoz (ko'chim)ning bir turi. Atoulloh Husayniyning kinoyaning lug'aviy ma'nosini "bir nimani derlar, lekin andin o'zga nimani iroda qilurlar" tarzida ifodalaydiki, bu ta'rif ko'chim termini ma'nosiga yaqin keladi. Biroq boshqa bir o'rinda u fikrni quyidagicha aniqlashtiradi: "andin iboraturkim, bir ma'noni angla lozimu tabi' ma'no uchun ysolg'on lafzila ul tarzda ta'bir qilurlarkim, agar ul lafzning o'z ysog'in iroda qilsalar ham ravo bo'lur...". Mazkur ta'rifga "fazl arobi qoshig'a ko'p berib kelmak anga lozimu tobi' bo'lg'on ko'p kafsh yirtmoqbila ta'bir etilptur..." misolining keltirilganidan kinoyaga aloqadorlik asosidagi ko'chim deb tushunilgani anglashiladi". Haqiqatdan ham, kinoya va ko'chim, biror narsani ma'nodor, shaxsni xarakteri, nasl-nasabi, obrazlilik yo'sinida ifodalash tushunilar ekan, kinoyaviylik faqat kulgi hosil qilishgina emasdir. U muammoning fojeaviyligini, naqadar muhimligini, biror siyosiy "o'yin"larni g'oyat dolzarbligini ham badiiy-tasviriy vositalar asosida ochib berishdir. Shu ma'noda, kinoya hayotdagi har bir masalaga chuqur iztirob bilan qaraydi. Yozuvchi shu yo'sinida o'zining maqsadini, mudaosini, ijodiy niyatini, halollikka chorloovchi, nafsni tarbiyalovchi, odamlarni birdamlikka yetaklovchi konsepsiyasini ham t'g'iz bir aloqada ifodalashga bel bog'laganligida ko'rinadi. Shuni qayd etish lozimki, hayotda ikki maqsadda kinoya ishlatiladi. Birinchisi odamlarga zavq va shavq ulashish, tushukunlikni yengishga yordamlashish, ikkinchi jamiyatdagi illatlarni kulgi zahirida fosh qilish, hamda ijobiy xususiyatlarga olib chiqish maqsadida. Ayni shu tamoyil, konsepsiya ingliz va o'zbek nasrida kinoyaviylikning yuzaga chiqish prinsiplarini anglashda imkon beradi.

Ingliz adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, Daniel Defoning "Robinson Kruzo", Jonatan Sviftning "Gulliverning sayohatlari" romanlari yodimizga tushadi. Ularning har birida bir olam tarixi o'z tajassumini topgan. Jamiyatdagi tabaqalashuv, odamlarning dardu tashvishlari bilan qiziqsinmagan amaldorlar, hokimiyat ustidan piching, kinoya orqali, sarguzashtlilikni yuksak mahorat bilan namoyon etadi. Bular hamisha o'z tarixi bilan, davlatchiligi bilan faxr-iftixor tuyg'usini tuyib yashaydilar. Ammo, lekin, yozuvchi bu bilan jamiyatni isloh qilish mumkin emasligini ham tushunib yetadi. Shuningdek, hayotda har bir shaxs o'z o'rni bo'lishi, o'z istaklarini ro'yobga chiqishi ustida bosh qotiradi. Yozuvchi ana shu mezonlarni anglatish yo'lidan borar ekan, insoniyat hech qachon tugal baxtga erisha olmasligini, u qaysidir korchaloning qo'liga o'tib qolsa, oddiy xalq azobu uqubat chekishini

dalolatlash yoʻlidan boradi.

Latifa, xalq masallarida kinoyaviylik modusi uchrasa, keyinchalik bu anʼana yanada boshqacha tusda gavdalandi. Masalan, M.M.Doʻst romanu qissalarida obyektini belgilab berdi. Bu strukturada ijodkor mahorati boʻrtib koʻrinar, boshdan-oyoq kinoyaviylik asosiga qurilgan asarlar yaratildiki, unda jamiyat butun boshli bir millat hayotini aks ettirishga imkoniyat yaratdi.

XX asrda kinoyaviylik modusi ikki xil yoʻsinda amalga oshirildi. Birinchisi birinchi jahon urushi yillarida roʻy bergan boʻlsa, ikkinchisi ikkinchi jahon urushidan keyingi xalqlar, millatlar hayotini aks ettirishga bagʻishlangani bilan oʻlchanadi. Ayni damda, har qanday ifodaning mazmuni, mohiyati, shakli, ustqurmasi imkoniyat nuqtai nazaridan barqarorlashdi. Lirik asarlarda ham kinoyaviylik oʻz tajassumini topdi. Misol uchun, Erkin Vohidovning “Donishqishloq taltifalari”, Anvar Obidjonning “Shoir Kulkiy hayoti va ijodi” hamda, Abdulla Oripovning baʼzi angoma tipidagi sheʼrlarida kinoyaviylik modusi maksimal darajada yuzaga chiqqanligini koʻramiz. Keyinchalik ingliz adabiyotidan kirib kelgan talqin fragmentlarida ham kinoyaviylik xuddi Ezop masallariga oʻxshab alohida bir mavqe kasb etishini tayin etadi. Natijada Ezop masallarida ham kinoyaviylik uslub darajasida zamon va makonni kesib oʻtadi. U shu bugungi kunda ham baʼzi xislatga ega odamlar ruhiyatini anglashga katta imkoniyat eshigini ochib beradi.

Ingliz yozuvchisi Jorj Oruell ijodida kinoya. XX asrda butun insoniyat boshiga misli tamgʻa boʻlib urilgan siyosiy elitaning nayranglari, soxta mafkura va metodlar yaratilishi, butun begunoh odamlar qonini chigan jamiyat tuzumi oxir-oqibat yemirilib, inqirozga yuz tutdi. Bu haqida soʻz borganda XX asrni qip-qizil nayranglari orasida oʻzbek xalqi ham oʻta ogʻir kunlarni boshidan kechirdi. Sobiq ittifoq yakka hokimligi, paxta va boshqa qulliklar girdobida odamlar ruhiyati qanchalik ezilgan boʻlsa, buni asorati 90-yillarda ham davom etdi. Yangi Oʻzbekiston siyosati – paxta qulligidan ozod qilindi. Mehnatiga yarasha haq, ishlaganiga yarasha maosh olish, odamlarning baxtu saodati, goʻzal umr kechirishi tabiiy ravishda oʻzbek xalqini ham peshonasi yarqiray boshladi. XX asrning 90-yillariga qadar erkinlik, ozodlik haqida soʻz ochish mumkin emasdi. “Xalq dushmani” sifatida qamoqqa tashlanish, yoki biror holat boshiga yogʻdirish, tuhmat bilan yoʻq qilish siyosati avj pallarlarida boʻldi. Biroq buning ham iloji bor ekanligi buguni Yangi Oʻzbekiston siyosati anglab yetish har bir mustaqil fikrli odamga tan. Ingliz yozuvchisi XX asr muammolarini koʻtarib chiqar ekan, asl ismi Erim Bleyir (Jorj Oruell taxallusi bilan ijod etgan) katta maqsadlar ila Yevropaning turli mintaqalarida yashab, avval jurnalistik keyinchalik yozuvchilik faoliyatini olib boradi.

Munaqqid Nazar Eshonqul yozishicha: “Shoʻro mafkurachilari 80-yillar oʻrtalarigacha nomini eshitsa choʻchib tushadigan, hatto oʻlimidan qariyb 40 yildan oshiq vaqt oʻtgach ham asarlari chop etilishiga ruxsat berilmagan. Jorj Oruell asarlari: “Molxona” qissasi, “1984” romani, esse va adabiy maqolalar. Oʻz asarida kommunistik dunyoqarash va kommunistik tuzumni masxara qilgani uchun barcha kommunistik davlatlarda asarlari taʼqiqlangan. Taʼqiqlangan! Gʻalati qiyos. Butun boshli davlat, uning ideologiya mashinasi bitta yozuvchidan qoʻrqqan. Yolgʻon shu darajada moʻrtki, bu yolgʻon yillar davomida qad koʻtargan boʻladi. Shoʻro tuzumi yarim asr Oruelldan qoʻrqib yashadi”. Haqiqatdan ham, qaysiki tuzum, mafkura oʻzi haqida tanqidiy maqola, esse, feleʼton, qissa yoki romanni, dramani eshitsa, oʻqisa, zid qarashlar borligini bilsa, xuddi sobiq ittifoq korchalonlari kabi ylarni yoʻq qilish, oʻlimga hukm etish, “xalq dushmani” sifatida qamash, otish, hibsga tashlash payida harakatga tushadi. Birgina A.Qodiriy, Choʻlpon, Fitrat, Behbudiy kabi oʻnlab ziyolilarni taqdirining oʻzi misol boʻla oladi. Bunday noxushliklar jahon boʻylab davom etdi. Ayniqsa, erk va ozodlik uchun bayroq koʻtargan haqiqiy millatparvarlar, vatanparvarlar juda

qattiq qiynoqlarga solindi. Jorj Oruell bularni jurnalistik surishtiruvlarida, hayotiy kuzatishlarida qattiq o'rganadi. Uning "1945 vayronalar" nomli esse-maqolalarida ham buning yorqin guvohi bo'lishimiz mumkin. Ushbu kitobda fashizm va totalitarizm, sotsialistik g'oyalarning tuzukgina konsepsiyasi mavjud emasligi, faqat yolg'onlar girdobida qolgan har qanday qaram xalqning ruhiy-ijtimoiy ahqoli ikoya qilinadi, qiyoslanadi:

"Men "Xerst endi Bleykett" nashrining birinchi sahifasida chop etilgan, Gitler hali "jigarrangko'ylakchi" bo'lgan (XX-asrning 30-yillarida Germaniyada amaldagi hokimiyatga muvofiq o'laroq maydonga kelgan kuchlar ommadan ajralib turish maqsadida jigarrang ko'ylak kiyib yurishgan – muharrir izohi) davrlaridagiday ko'z oldimizda namoyon bo'lgan suratini alohida tavsiya qilgan bo'lardim. Uning yuz ifodasi xuddi itnikiday achinarli va mahzun, chehrasi go'yo chidab bo'lmas adolatsizlikka uchragan kishinikiдай. Agar bu chehraga jindekkina mardonavorlik qo'shilsa, u chormih qilingan Isoning behisob suratlariga o'xshab qoladi va shubha yo'qki, Gitler o'zida aynan u deb tasavvur etgan. Uning butun dunyodan o'lguday ko'ngli qolishining dastlabki, o'ta shaxsiy sabablari borasida faqatgina faraz qilish mumkin, ammo, ne bo'lganda ham o'sha xafagarchilik yaqqol seziladi. U – jafokash, qurbon, qoyaga zanjirband qilingan Prometey, aql bovar qilmas yovuzlik bilan yolg'izlik olishayotgan fidoyi qahramon. Agar uning oldiga sichqonni o'ldirish vazifasi qo'yilsa, shunday qilardiki, sinchqoncha bizning ko'z o'ngimizda olovpurkar ajdaho sifatida paydo bo'lardi".

Ko'rinadiki, keltirilgan lavhada ikkinchi jahon urushiga olib kelgan masalalar bilan zamonaviy dunyoning asl qiyofasi, Stalin hamda Gitler siyosati "fashizmning zarari", oqibatlari xususida haqqoniy baho bermoqda. Shu o'rinda ham Gitlarning asl qiyofasi, yovuzlikka moyillik sabablari, ichida-yu, tashida insoniyatni qirib tashlash, yagona hukmronlik qilish g'oyasining jirkanch manzarasini talqin etib, ochib tashlamoqda. Kinoya vva piching ham aralashgan taqrizda Gitlerni asl qiyofasi itga o'xshatilmoqda. Shuni ham qayd etish lozimki, Jorj Oruell bu masalaga umuminsiy rakursdan turib yondashadi. Ayniqsa, Yaponiyaning, AQSH va Yevropa, Rossiya davlatlarining hukmronlikka moyilligi kuchayib, "qurol-yarog'" bilan bir-birlarini "tiyib" turish g'oyasi tobora kuchayib borayotganini chuqur talqin etadi. Ana shu esse-maqolalar Jorj Oruellni badiiy asar yozib, qahramonlarini kinoyaviy-piching, kulgi bilan tasvir etishga yetaklaydi. "Molxona" asari timsolida buning yorqin namunasini ko'ramiz.

O'zbek yozuvchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, qator hikoya, qissa, romanlari bilan tanilgan Luqmon Bo'rixon ijodida kinoyaviy-parodik usul ingliz yozuvchisi Jorj Oruellnikidan sira-sira kam emas. Butun boshli asarida oddiy, to'pori, jaydari odamlar hayotini, cho'lquvarlarni, sobiq kommunistik g'oyalarga sadoqat bilan xizmat qilayotgan xarakterlarni tasvirlar ekan, ulardagi samimiyat esa har bir qo'uvchini o'ylashga undashi tayin. Chunki yozuvchi rus va Yevropa adabiyotini teran o'rganganligi, uslubda, shaklda, tasvirda alohida formalarni kashf etish yo'lidan borganligini his etamiz. Bular adibning mahorati yuksalganidan shahodatdir. Jorj Oruell esa Luqmon Bo'rixondan tubdan farq qilgani bilan totalitar tuzum kirdikorlarini "allegorik" tarzda, masalnoma tarzida talqin etadi. Demak, har ikki yozuvchi dissertatsion tadqiqotimizda qiyoslab, ularning yutuq va kamchiliklarini aniq mezonlarini qayta kashf etishda muhim ahamiyatga ega.

Prof. M.Qo'chqorova o'zbek nasrida kinoya, parodiya haqida so'z yuritib, quyidagi masalalarni talqin etganligida rus adabiyotshunoslari fikrlariga tayanadi:

Parodiya qachon tug'iladi? Parodiya eskilik bilan yangilik o'rtasida kurash kuchaygan paytda, biron bir jiddiy muammo ustidan achchiq kulish maqsadida, jamiyatdagi yomon illatlarni tag-tomiri bilan yo'qotishga qattiq kirishilgan paytda eng mohir, iste'dodli yozuvchi-shoirilar tomonidan parodiya asar yaratishga zaruriyat tug'iladi. Parodiyaning

muhim adabiy-nazariy kanonlari sifatida rus adabiyotshunoslari quyidagilarni ko'rsatishadi:

Muallif uslubiga taqlidiy parodiya;

Tanqidiy yo'nalish;

Yumor;

Poetik mahorat

Ingliz adibi Jeyms Joys, Jorj Oruellar asarlaridagi kinoya, parodiyalar, yumor jamiyatdagi illatlarning nechog'li zarar-kundadan farq qilmasligini, bunday vaziyatlarda san'at hamda adabiyotning bor kuch-qudratidan unumli foydalanib, ularga qarshi talqin olib borish muhimligini anglatadi. Jamiyat hamisha o'z oqimida suzadi. O'z mafkurasi bilan taraqqiy etadi. Soxta mafkura, ko'zbo'yamachiliklar, o'ylab topilgan har qanday masalalar yozuvchi yoki shoirlarni, dramaturglarni jiddiy tashvishga solishi tayin. Shuning barobarida har bir yozuvchi inson shaxsiyati bilan bog'liq katta-kichik masalalarni ich-ichidan his etishi tayin. Chunki adib hamisha uyg'oq vijdon bilan ish tutmog'i lozim. Jorj Oruellning tanqidiy-ijtimoiy maqolalari, esselarida ana shu muammolar keyinchalik badiiy shaklga singdirildi. Luqmon Bo'rixonning o'ziga xos uslubiy izlanishlari esa, hayot haqiqatini boricha ochib berish, sobiq ittifoq yakkahokimligini jiddiy tanqid qilish, ulardagi hayotiy muammolarni, cho'lquvarlar, paxta ekib, hamma tomonni suvsizlikka aylantirishga qo'shgan hissalarini kinoya, parodiya, piching orqali yoritishga bel bog'laganida deb tushunish muhim.

Umuman, kinoyaviy mazmun aks etgan juda ko'plab asarlarda hokimiyat va amaldorlar ustidan qilingan satirik ifodalar ko'z o'ngimizga keladi. Lapashang, ishyoqmas, dangasa va kunim o'tsa bo'ldi deb yashaydigan obrazlarni har qachon anglash, ularni so'z vositasida xashtash muhimmi? Jamiyatda ulardan ham muhim ishlar borligini diqqatli yozuvchilar, tafakkuri keng adiblar tezda tushunib yetadi va bunga javob tariqasida haqqoniy, hayotiy masalalarni badiiyat ichkarisiga olib kira oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qur'onov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T: "Akademnashr". 2013. –B.132.
2. Nazar Eshonqul. Mendan "men" gacha. –T: "Akademnashr". 2015. –B.381.
3. Jorj Oruell. 1945. Vayronalar. –T: "INFOKAPITALBOOKS". 2025. –B. 110-111.
4. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/marhabo-qochqorova-kinoyaviy-badiiy-parodiya/#_ftn1
5. Attardo, S. Irony as Relevant Inappropriateness.
6. Gibbs, R.W. Irony in Talk Among Friends.
7. Grice, H.P. Logic and Conversation.
8. Kovecses, Z. Language, Culture, and Metaphor: Conceptualizations of irony